

**ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA  
ILMIY LOYIHANI BAJARISH TO'G'RISIDA  
SHARTNOMA  
FL-7923051854-son**

2024-yil "1" - may

**Toshkent sh.**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi (keyingi o'rinlarda — Buyurtmachi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **Rajabbayev Sharof Raximberdiyevich** bir tarafdin, loyiha rahbari **Turayev Xayit Xudaynazarovich** ikkinchi tarafdin, Termiz davlat universiteti (keyingi o'rinlarda — Ijrochi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi rektor **Toshqulov Abduqodir Hamidovich** uchinchi tarafdin, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Moliyalashtiruvchi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi Ijro etuvchi direktor v.v.b. **Tavakalov Jonibek Tavakalovich** to'rtinchi tarafdin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ilm-fan va innovatsiyalar kengashining 2024-yil 1-martdagi 1-son bayoni hamda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 1-apreldagi 96-son buyrug'iga muvofiq taraflar o'rtasida mazkur shartnoma tuzildi.

**I. Shartnoma predmeti**

1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari Buyurtmachining topshirig'iga binoan mazkur shartnomada belgilangan **“Новые ультра- и нанофильтрационные мембраны на основе природного сырья (Tabiiy xomashyolar asosidagi yangi ultra- va nanofiltratsion membranalar)”** nomli **fundamental** tadqiqot loyihasini bajarish va uning natijasini Buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish, Moliyalashtiruvchi esa moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Loyiha bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va ularni bajarish muddatlari hamda bajarilgan ishlar bo'yicha taqdim etiladigan hisobot shakllari ushbu shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan kalendar rejaga asosan belgilanadi.

**II. Shartnomaning moliyaviy hajmi va moliyalashtirish tartibi**

3. Moliyalashtiruvchi tarafdin loyiha umumiy moliyalashtirish hajmi **1 474 024 800 (bir milliard to'rt yuz yetmish to'rt million yigirma to'rt ming sakkiz yuz)** so'mni tashkil etadi. Shundan 1-yilda bajariladigan ishlar uchun **737 032 400 (yetti yuz o'ttiz yetti million o'ttiz ikki ming to'rt yuz)** so'm moliyalashtiriladi. Loyiha mazkur shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning 95 foizi tadqiqot davri mobaynida, loyihani amalga oshirishda xarajatlarni qoplash uchun ajratiladi. Loyihaga ajratiladigan mablag'ning qolgan 5 foizi loyiha natijalari Buyurtmachi tomonidan qabul qilinganidan so'ng ajratiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga muvofiq ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar miqdori oshirilganda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan indeksatsiya mablag'i ajratilsa, loyiha umumiy moliyalashtirish hajmi o'zgarishi mumkin.



### III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

#### 6. Buyurtmachining huquqlari:

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda;

loyihani amalga oshirish natijalariga oid ma'lumotlarni, ilmiy va moliyaviy hisobotlarni Ijrochidan talab qilish;

Ijrochi va Loyiha rahbari bilan kelishilgan holda ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Mazkur shartnoma shartlari Ijrochi va Loyiha rahbari tarafidan bajarilmaganda yoki tegishli darajada bajarilmaganda ushbu loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish, shuningdek, shartnomani bir taraflama bekor qilish.

#### 7. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan loyihani ijrosiga oid barcha axborot va ma'lumotlarni so'rab olish; loyiha doirasida ajratilgan mablag'larni o'z muddatida moliyalashtirilishini talab qilish.

#### 8. Loyiha rahbarining huquqlari:

Ijrochidan loyihani ijrosiga oid barcha zarur axborot va ma'lumotlarni so'rab olish;

loyiha doirasidagi ishlarni bajarish uchun mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirilishini talab qilish.

#### 9. Moliyalashtiruvchining huquqlari:

Ijrochi tashkilot tarafidan davriy moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatlarda topshirilmagan taqdirda Buyurtmachini ogohlantirgan holda loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish.

#### 10. Buyurtmachining majburiyatlari:

Ijrochi tarafidan taqdim etilgan shartnoma, xarajatlar smetasi va kalendar rejani ko'rib chiqish va kelishish;

mazkur shartnoma asosida, uning xarajatlar smetasiga mos ravishda loyihani moliyalashtirish to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qilish;

loyiha doirasida bajarilayotgan ishlarni va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanayotganligini monitoring qilish, zarur hollarda joyiga chiqqan holda.

#### 11. Ijrochining majburiyatlari:

kalendar rejaga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini o'z muddatida Buyurtmachiga topshirish. Loyiha doirasida ijrochi tomonidan yaratilgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari, davlat ilmiy-texnik loyihalar yakunlanganidan va (yoki) ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin tijoratlashtirilishi shart, fundamental va tajriba-konstruktorlik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasidagi loyihalar bundan mustasno;

loyiha doirasida yaratilgan tadqiqot natijalarini Web of Science va Scopusning ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda hamda boshqa nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilishini ta'minlash;

tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlarni olish;

bajarilgan ishlarda o'zining aybi bilan yo'l qo'yilgan, shartnomada nazarda tutilgan parametrlardan chekinishga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni o'z kuchi bilan va o'z hisobidan bartaraf etish;

kutilayotgan natijalarni olish mumkin emasligi yoki ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Buyurtmachini besh ish kuni muddatda xabardor qilish;

shartnoma asosida topshirilgan natijalarga uchinchi shaxslarda alohida huquqlar yo'qligi haqida buyurtmachiga kafolat berish;



loyihani sifatli va samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ashyolar, asbob-uskunalar, qurilmalar, ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash va boshqa zarur sharoitlarni yaratish;

shartnomada ko'zda tutilgan mablag'lar va tovar-moddiy boyliklar hisobini yuritish va ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash;

ilmiy-tadqiqot va moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlash;

loyiha uchun ajratilgan mablag'larni sarflanishi yuzasidan choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni hisobot davridan keyingi oyning yigirma beshinchi sanasiga qadar "UzASBO" dasturiy majmuasi orqali elektron shaklda Moliyalashtiruvchiga taqdim etish;

Buyurtmachi tarafidan joyiga chiqqan holda loyihaning bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan monitoring uchun zarur sharoitlarni yaratib berish;

yuridik manzili va bank rekvizitlari o'zgarganda taraflarni 10 ish kun ichida xabardor qilish;

loyiha doirasida ajratilgan budget mablag'larini xarajatlar smetasi asosida belgilangan tartibda va miqdorda maqsadli sarflanishini ta'minlash;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

#### **12. Loyiha rahbarining majburiyatlari:**

shartnoma shartlarini va loyihani o'z muddatlarida sifatli va to'liq bajarish, moliyaviy mablag'lar va moddiy-texnik resurslarni maqsadli ishlatish;

shartnoma bo'yicha ishlarni to'liq hujjatlashtirish va o'z vaqtida ilmiy va moliyaviy hisobotlarni topshirish;

loyiha bo'yicha tayyorlangan hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi, avval bajarilmaganligi, ko'chirmachilik (plagiat)ka yo'l qo'yilmaganligi hamda tanlov mavzusi va shartlariga mosligiga javobgardir.

#### **13. Moliyalashtiruvchining majburiyatlari:**

Mazkur shartnoma bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan loyihani moliyalashtirish;

Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan loyihani moliyalashtirishni to'xtatib turish va (yoki) to'xtatish.

### **IV. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

**14.** Mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning natijasi, uning yakuniy hisobotlari Buyurtmachi tarafidan qabul qilib olinadi.

**15.** Ijrochi loyihani bajarish kalendar rejasiga asosan tayyorlangan yillik (oraliq) ilmiy hisobotni loyiha boshlangan kundan boshlab bir yil (12 oy) o'tgandan so'ng keyingi oyning 15-sanasiga qadar, yakuniy ilmiy hisobotni esa loyiha tugagandan keyingi oyning 15-sanasiga qadar Buyurtmachiga topshiradi. Agar ilmiy hisobot ko'rsatilgan muddatda Buyurtmachiga topshirilmasa ajratilgan mablag'ning 5 foizi Buyurtmachi qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga binoan Moliyalashtiruvchi tomonidan ushlab qolinadi.

Buyurtmachining qarori asosida Moliyalashtiruvchi loyiha uchun ajratilgan mablag'ning 5 foizini moliyalashtiriladi.

**16.** O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq choraklik, 6 oylik, 9 oylik va yillik moliyaviy hisobotlar Ijrochi tarafidan hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasigacha topshiriladi.

**17.** Choraklik moliyaviy hisobot natijalari bo'yicha ajratilgan mablag'larning sarflanmay qolgan qismi Buyurtmachi tomonidan maqbullashtirilishi mumkin.

**18.** Ish bosqichlarini qabul qilish jarayonida ushbu shartnomaning kalendar rejasida ko'rsatilgan talablariga mos kelmasligi aniqlansa, Ijrochi belgilangan ishlar hajmini o'z hisobidan kelishilgan muddatda to'liq bajarishga majbur.



19. Agar ishni bajarish jarayonida salbiy natija olish holati yoki ishni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, Ijrochi ishni to'xtatishi va bu haqida bir hafta muddatda Buyurtmachini rasmiy xabardor qilishi zarur. Ushbu hollarda taraflar ishni keyinchalik davom ettirish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligi to'g'risida qaror (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) qabul qiladilar.

20. Ijrochi tarafidan loyiha Buyurtmachi bilan kelishilgan kalendar reja doirasida bajarilmaganligi aniqlansa, oraliq bosqich hujjatlari va hisobotlar belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilmasa hamda o'z muddatlarida topshirilmasa, bunday holatlarda Buyurtmachi qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma) bilan Moliyalashtiruvchi tarafidan moliyalashtirish to'xtatiladi va shartnoma bekor qilinadi.

## **V. Shartnoma shartlarini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi**

21. Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi va (yoki) tegishli darajada bajarmaganligi uchun, agar shartnomaning buzilishida o'zining aybi yo'qligini isbot qilmasa, Buyurtmachining loyiha doirasida moliyalashtirilgan mablag'ini Ijrochi va Loyiha rahbari birgalikda qoplashi shart.

22. Ijrochi tarafidan shartnoma shartlari bajarilmagan holatlarda ishlar bajarilmagan va shartnoma shartlari buzilgan deb hisoblanadi. Ushbu holatda Moliyalashtiruvchi Buyurtmachining qarori (Kengash qarori, buyruq yoki ko'rsatma)ga asosan moliyalashtirishni to'xtatadi.

23. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda taraflar ushbu shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida javobgardir.

## **VI. Korrupsiyaga qarshi kurash**

24. Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish bilan bog'liq barcha amaldagi qonunlar, qonunosti hujjatlar, shu jumladan: "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga rioya qilishni o'z zimmlariga oladilar.

25. Tomonlar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq hech qanday korrupsiyaviy harakatlar yoki harakatsizlikni sodir etmaslikni tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

26. Tomonlar korrupsiyaviy harakat yoki harakatsizlik haqida voqea/hodisa sodir etilgan kundan boshlab 5 ish kun ichida xabar berishi kerak.

27. Buyurtmachi korrupsiyaga qarshi bandlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida mazkur shartnoma bilan bog'liq faoliyati bo'yicha audit o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

28. Buyurtmachi korrupsiyaviy holatlar to'g'risida xabar bergan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi va kafolatlaydi.

29. Mazkur bandlarga rioya qilmaslik yoki ularni to'la bajarmaslik bevosita shartnomani bekor bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

30. Tomonlar agar ulardan birining xatti-harakatlari orqali mazkur bo'limda ko'rsatib o'tilgan bandlardan birini buzish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

## **VII. Fors-majior holatlari**

31. Agar shartnoma majburiyatlari quyidagi holatlarning vujudga kelishi natijasida bajarilmagan bo'lsa, taraflarning birortasi ham o'ziga olgan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi: suv bosish, yong'in, yer qimirlash va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek urush, harbiy harakatlar yoki shartnoma tuzilgandan keyin taraflarning nazoratidan tashqarida yengib bo'lmas kuch ta'sirida sodir bo'lgan holatlar. Bunda, ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish muddati bunday holatlarning harakatlanish davriga mos ravishda keyinga suriladi.



### VIII. Boshqa shartlar

**32.** Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha Ijrochi va loyiha rahbari shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan Buyurtmachi oldida solidar tarzda javobgar hisoblanadilar.

**33.** Ijrochi va Loyiha rahbari mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan ishlanmalar, chop etilgan maqolalar, monografiyalar, ommaviy-axborot vositalaridagi ma'lumotlarda ishlar Buyurtmachi tarafidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida bajarilganligini qayd etishlari shart.

**34.** Loyiha doirasida huquqiy muhofaza qilinishi zarur bo'lgan ilmiy natija olinsa Loyiha rahbari bir hafta muddatda Ijrochiga bu haqida yozma xabar berishi lozim. Ijrochi ikki hafta muddatda o'zining ilmiy-texnikaviy kengashida xabarni ko'rib chiqib, intellektual mulk obyektini muhofaza qilish to'g'risida qaror qabul qiladi va Buyurtmachiga bu haqda axborot beradi. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish Buyurtmachi bilan yozma ravishda oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

**35.** Loyiha ijrochilari bilan tuziladigan mehnat shartnomasida qonunchilik hujjatlari hamda ushbu shartnoma shartlari asosida loyiha doirasida yaratiladigan intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilinishini ta'minlashga doir band kiritilishi lozim.

**36.** Loyiha doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlari uchinchi tomonga beriladigan bo'lsa, litsenzion kelishuv asosida berilishi va litsenzion kelishuvda texnologiya (ishlanma) muallif(lar)i, Ijrochi hamda uchinchi tomon o'rtasida foyda taqsimlanishi ko'rsatiladi.

**37.** Ushbu shartnoma bo'yicha loyihani bajarilishi uchun sotib olingan asbob-uskunalar, qurilmalar ish bajarilgandan so'ng Ijrochi balansida qoldiriladi. Moliya yilining oxirida har bir sotib olingan asbob-uskuna, qurilma va boshqalar bo'yicha moliyaviy xarajati ko'rsatilgan ro'yxat Buyurtmachiga taqdim etiladi.

**38.** Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish taraflarning kelishuviga binoan belgilangan tartibda yozma ravishda amalga oshiriladi.

**39.** Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi. O'zaro kelishuv ta'minlanmagan holda kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

**40.** Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi.

**41.** Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

**42.** Shartnoma bo'yicha loyihaning bajarilish muddati: 2024-yil 1-mayda boshlanadi va 2026-yil 30-aprelda yakunlanadi.

Mazkur shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'ladi hamda taraflar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar amalda bo'ladi.

**43.** Ushbu shartnoma shartnomaning har bir tarafi uchun teng yuridik kuchga ega bo'lgan 4 (to'rtta) asl nusxada tuzildi. 1-nusxa Buyurtmachiga, 2-nusxa Ijrochiga, 3-nusxa Loyiha rahbariga va 4-nusxa Moliyalashtiruvchiga taqdim etiladi.



# IX. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari

## Buyurtmachi

## Ijrochi

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi**

**Termiz davlat universiteti**

100174, Toshkent sh., Olmazor t.,  
Universitet ko'chasi, 7-uy  
Tel.: (71) 203-32-23  
sh/h: 400110860262807014301254001  
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
G'aznachilik xizmati qo'mitasi  
H/r 23402 000 300 100 001 010  
MB XKKM BB Toshkent sh.  
STIR:201 122 919 MFO:00014  
STIR:305 166 715




**Direktor**

**Moliyalashtiruvchi**

**Sh. Rajabbayev**

190111, Surxondaryo v., Termiz sh.,  
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy  
Tel.: (76) 221-76-90;  
sh/h: 400110860224017094100350007  
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
G'aznachilik xizmati qo'mitasi  
H/r № 23402 000 300 100 001 010  
MB XKKM BB Toshkent sh.  
STIR: 201122919 MFO:00014  
STIR: 200473474 OKED: 85420



**Rektor**

**Loyiha rahbari**

**A.Toshqulov**

**Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni  
qo'llab-quvvatlash jamg'armasi**

**Turayev Xayit Xudaynazarovich**

100174, Toshkent sh., Olmazor t., Universitet  
ko'chasi, 7-uy  
Tel.: (71) 203-17-00; (71) 203-32-23  
sh/h: 302810860262737015401254002  
O'z.R. Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
G'aznachilik xizmati qo'mitasi  
H/r 23402 000 300 100 001 010  
MB XKKM BB Toshkent sh.  
STIR:201 122 919 MFO:00014  
STIR:304 999 794

**Ijro etuvchi direktor  
v.v.b.**



**J. Tavakalov**

Termiz sh., 5-kichik daha, 34-uy,  
38-xonadon  
Pasport ma'lumotlari: 25.05.1957-y.t.;AD  
3343409 (Boysun Tumani IIV 22401  
tomonidan 17.05.2023-yilda berilgan)  
JSHSHIR: 32505571930028  
Tel.: (91) 579-06-33  
Email : hhturaev@rambler.ru

**Loyiha rahbari**

**X.Turayev**